

Sportchimizga ulkan zafarlar tilab qolamiz!

✘ Rustamov Sirojbek Sanjar o'g'li Qozog'iston Respublikasida o'tkazilgan KUZ OPEN 2019 turnirida JIU-JITSU sport turi bo'yicha faxrli 3-o'rinni egalladi.

Rustamov Sirojbek 1998 yil 16 iyulda Xorazm viloyati Xazorasp tumanida ishchi oilasida tavallud topgan. Maktab davrlarida sportga nisbatan mehri boshqacha bo'lib, turli tanlovlarda faol ishtirok etib kelgan.

JIU-JITSU sport turi bo'yicha ilk saboqlarini 2017 yil "Senna fight" akademiyasida olib, hozirgi kungacha qator turnirlarning g'olibi hisoblanadi. Jumladan, 2018 yil dekabr oyida Qozig'iston Respublikasida o'tkazilgan Asia open turnirida faxrli 2-o'rinni, Toshkent shahrida o'tkazilgan turnirlarda 6 karra o'z vazn toifasida 1-o'rinni egallab, chempionlikni bermay kelmoqda.

2019 yil Qozog'iston Respublikasida o'tkazilgan KUZ OPEN 2019 turnirida JIU-JITSU sport turi bo'yicha faxrli 3-o'rinni egalladi.

Rustamov Sirojbek Sanjar o'g'li 2019 yilda "Uzbekistan Cup 2019" turnirida ishtirok etib, faxrli 3-o'rinni egalladi va O'zbekiston Milliy terma jamoasiga qabul qilindi. Sportchimizga ulkan zafarlar tilab qolamiz!